

”Folklorning maktabgacha ta’lim bolalarining tarbiyasidagi o’rni”

Osiyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o’qituvchisi

Shukurova Madina O’ktam qizi

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim tashkilotida folklorning namunalaridan foydalanib mashg’ulotlarni tashkillashtirishga oid vazifalarni mustahkamlashga erishish

Kalit so’zlar: Maqol, matal, ertak, doston, hikoya, monolog, ijtimoiy vaziyat, emotsional holat, ermak o’yinlar, muloqot, nutq, empatiya, diolog

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining so‘z san‘atiga asoslangan janrlar tizimi doston, ertak, qissa, rivoyat, naql, afsona, mif, lof, latifa, marosim folklori, bolalar folklori, og‘zaki drama, maqol va hikmatli so‘zlar, afsun, avrash, olqish va qarq‘ishlardan iboratdir. Bu kabi badiiy meros ajdodlarimiz poetik tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Har bir janrga oid bo‘lgan folklor o‘ziga xos poetik tizimi, ijro usuli, hayotiy-maishiy vazifasi, musiqaga munosabati, voqelikni badiiy aks ettirish hamda boshqa jihatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanib turadi. Xalq ijodida mavjud bo‘lgan yuksak ma‘naviy barkamollik an‘analari bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishning milliy negizidir. Shuning uchun ham o‘zbek xalq og‘zaki ijodining boy va serqirra an‘analarini qayta tiklab, uni rivojlantirish, yoshlarning bugungi kundagi ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda yetarli darajada imkoniyatlar yaratishda folklor va etnografiya bo‘yicha mutaxassislarim tayyorlash amaliy ahamiyatga egadir. “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun ham mamlakatimiz ma‘naviy hayoti uchun zarur bo‘lgan shunday malakali, intellektual salohiyati yuqori, ma‘naviy olami teran mutaxassislarini tayyorlashni toqazo etadi. Folklor va etnografiya yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashning milliy negizi-xalqimizning ma‘naviy qadriyatlarini yanada takomillashtirish, yosh avlod ongiga mustaqillik mafkurasi g‘oyalarini, hamda milliy qadriyatlarni chuqur singdirishdan iborat. Sababi, bu kabi mutaxassislar ajdodlarimiz ijodiy salohiyatining eng yaxshi an‘analarini kelgusida ham davom ettirishni ta‘minlashga o‘z hissalarini qo‘shishlari zarur. Xalqimizning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-estetik va falsafiy qarashlarini o‘ziga xos tarzda badiiy talqin etuvchi xalq og‘zaki ijodi folklorshunoslikning eng nodir manbalaridan hisoblanadi. Folklor asarlari xalqimizning yuksak madaniyatni bunyod etgan ulug‘ ajdodlarimizning turmush tarzi, orzu-intilishlari, urf-odatlar va marosimlari, an‘analarini mukammal aks ettirganligi uchun ham qadrlidir. Xalq og‘zaki ijodi fanda folklor deb yuritiladi. Barchamizga ma‘lumki, o‘zbek folklorshunosligi fanining shakllanishi XX asrning 20-

yillaridan boshlangan. Folklorshunoslik -xalq ogʻzaki badiiy ijodiyotining nodir namunalarini toʻplash, ularni sistemaga solish, ommaviy va akademik nashrlarni amalga oshirish, hamda xalq ogʻzaki ijodiyoti yuzasidan tadqiqotlarni olib borishni oʻz ichiga oladi. “Folklor” atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan. “Folklor” atamasi “xalq donoligi” degan maʼnoni anglatadi. Xalq tomonidan yaratilgan hamma sanʼat namunalari(meʼmorlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardoʻzlik, musiqa, raqs, ogʻzaki adabiyot) folklor namunalari hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir sanʼat sohasida ish olib borayotgan mutaxassislar oʻzi tanlagan faoliyat turi, ijod mahsulini “folklor” deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf oʻzining xalq raqslarini, folklorshunos olim xalq dostonlarini, ertaklarini folklor asari deb ataydilar. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi dastlabki vaqtlarda “el adabiyoti”, “xalq adabiyoti”, “ogʻzaki adabiyot”, “xalq ogʻzaki ijodi” deb atalgan boʻlib, bu atama ilk bor H. Zarifov (1934-35 yillar) tomonidan qoʻlanilgan “folklor”, “Oʻzbek folklori” sifatida qoʻllanila boshladi. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi koʻplab janrlarni oʻz ichiga olgan ogʻzaki soʻz sanʼati namunalari boʻlib, oddiy xalqning hayoti, tarixi, orzu-intilishlari, dunyoqarashlarini badiiy tarzda oʻzida aks ettiradi, ijro etiladi va ijro jarayonida ogʻizdan-ogʻizga, avlod-dan-avlodlarga oʻtib keladi. Folklor - sinkritik xususiyatga ega boʻlib, barcha sanʼat turlariga xos elementlarni oʻzida mujassamlashtirgan, unda soʻz, kuy va maʼlum turlarida raqs uygʻunlikda ijro etiladi. Folklor oʻzida xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy aks etadi. Folklor asarlari zamirida xalqning dunyoqarashlari, ibtidoiy mifologik tushinchalardan mukammal diniy eʼtiqodiga boʻlgan tushunchalar yotadi. Anʼanaviy xalq ogʻzaki ijodining oʻziga xos xususiyatlarini chuqur biladigan, mustaqillik davri oʻzbek folklorining taraqqiyot qonuniyatlarini teran angelaydigan xalqning maʼnaviy ehtiyojlari va qiziqish doirasini yaxshi tushunadigan, havaskorlik ijodiyotini takomillashtira oladigan, boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlarini toʻla oʻzlashtirgan malakali mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Folklor namunalarini toʻplash ishlari bilan Gʻozi Olim Yunusov birinchi shugʻullangan. U oʻz tadqiqotlari davomida oʻzbek epos-shunosligi tarixida birinchi boʻlib Fozil Yoʻldosh oʻgʻli, Ergash Jumanbulbul oʻgʻli kabi xalq baxshilarini aniqlab, 1922-yilning yozida Fozil Yoʻldosh oʻgʻli va Hamroqul baxshilardan “Alpomish” dostonidan parchalar yozilgan. Folklorshunos olim Gʻ.O.Yunusov Toshkent, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida boʻlib, bir qancha qoʻshiq, ertaklar, afsona, maqol, topishmoq hamda rivoyatlarni yozib olgan. Bundan tashqari oʻzbek marosim folkloriga oid kuzatishlar olib borish bilan bir qatorda, boy etnografik materiallarni ham toʻplagan. Gʻ.O.Yunusov oʻzbek folklori namunalarini toʻplovchilar uchun metodik qoʻllanma ham yaratilgan. Folklorshunos olimning “Alla toʻgʻrisida bir-ikki ogʻiz soʻz”, “El

adabiyotidan namunalari”, “Og‘iz adabiyotida sinfiy tuyg‘ular kabi maqolalari folklorshunoslik tarixida muhim o‘rin tutadi.

1925-1928-yillarda G‘ozi Olim Yunusov, Hodi Zarifovlar xalq baxshilarini, ertakchi va qo‘shiqchilarni aniqlash, ularning repertuaridagi asarlarni yozib olishni tashkil etilgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Berdi baxshi, Abdulla shoir kabi bir qancha baxshilardan xalq dostonlarini yozib olishgan. Bu ishga Mahmud Zarifiy, Bahrom Ibrohimov, Muqim Hamzabekov, Nazarqosim Mirzayev, Husayn Karim kabi havaskor folklor to‘plovchilar ham ishlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shukurova Madina O‘ktam qizi. (2023). "Methods of formation of spiritual and moral qualities in 6-7-year-old children in preschool educational organization". *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 353–356.
2. Madina O‘ktam qizi Shukurova. (2023). Speech grow up in training using interactive methods. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 357–360.
3. Madina O‘ktam qizi Shukurova. (2023). The importance of genres of folklore in the education of preschool children ". *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 96–99.
4. Oktam’s, S. M. (2023). "Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization". *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 104–108.
5. O‘ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). *BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O‘YINLAR. PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486.
6. Akbarovna, I. S. (2023). *SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 184-191.
7. Akbarovna, I. S. (2023). *NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 192-197.
8. Ikromova, S. A. (2023). *FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS. Innovation in Science, Education and Technology*.
9. Hikmatovna, M. N. (2023). *Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 386-388.
10. Hikmatovna, M. N. (2023). *BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA QO‘LLANILADIGAN*

METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.

11. Gafurovna, L. S. (2023). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O'QITUVCHISINING RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 300-309.

12. Gafurovna, L. S. (2023). THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL LEARNING RESOURCES IN PRIMARY EDUCATION. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).

13. Sobirov, A. (2021). ВИДЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЧНОСТИ В СПОРТЕ И В ЖИЗНИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 7(7).

14. Sobirov, A. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАЩИТНЫЕ ФАКТОРЫ ПРОЯВЛЯЮЩИЙСЯ У СПОРТСМЕНОВ: The features of negative psychological defense, manifested in athletes under the influence of external causes, and the factors causing it are classified. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 7(7).

15. Tursunova, Z. N. (2023). ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN MOTHER TONGUE SUBJECT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 468-472.

16. Ne'matovna, T. Z. (2023). "BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI" MAZMUNI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 324-331.

17. Narziyeva Shahnoza Rustamovna. (2023). DEVELOPING EMPATHY IN STUDENTS. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 127-131.

18. Kozimova, N. A. (2023). Psixologik konsultatsiya bosqichlari. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 90-95.

19. Kozimova, N. A., & Ulugova, S. M. (2022). Classification of a Group of Staff for Psychological Conseling and Referral to It. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 7, 175-177.

20. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENT EMPATHY. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 132-134.

21. Sobirovna, S. Y. (2023). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(4), 160-166.

VOLUME-2, ISSUE-1

22. Sobirovna, S. Y. (2023). METODIST FAOLIYATI ASOSLARI. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(5), 108-114.
23. Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 361-367.
24. Ravshanovna, X. S. (2023). O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri va ahamiyati. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 803-816.
25. Ravshanovna, K. S. (2023). Factors Affecting the Formation of a Positive Attitude to the Learning Activity in Students. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 116-122.0
26. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In *ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ* (pp. 60-62).
27. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In *EUROPEAN RESEARCH* (pp. 121-123).
28. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. *Universum: технические науки*, (2-1 (95)), 57-59.
29. Isomova, F. A. T. Q. (2022). МАКТАБГАЧА TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.
30. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(11). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/444>
31. UNDERSTANDING EMPATHY: AN ESSENTIAL COMPONENT OF HUMAN CONNECTIONNS Rustamovna